

THE IMPORTANCE OF INTRODUCING THE SUBJECT "EDUCATION" IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Khusanov Golib Elmurodovich

Teachers of the Samarkand regional center for retraining and
advanced training of public educators

Aripov Jamshid Yahshibaevich

Teachers of the Samarkand regional center for retraining and
advanced training of public educators

Annotation:

In this article, the author highlights the legal basis for the introduction of the subject "education" in general education schools in our country and the importance of teaching the subject "education" in general education schools.

Key words: globalization process, threat, tolerance to threats, upbringing, social relations, immunity, preventive measures.

Bugungi axborot asrida yoshlarning axborot xurujlari yoki ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bunday ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy jarayonlarni qamrab oluvchi profilaktik jarayonlar jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor ahamiyat kasb etganligi uchun ham yoshlarning tahdidbardoshlik qobiliyatini shakllantirish globallashuv jarayonidagi eng muhim talablaridan bo'lib turibdi. Nega deganda: "...globallashuv (iqtisodiyotdagi ko'rinishi bundan istisno) moddiy emas balki ma'naviy omil, uning in'ikosi millat va xalqlar dunyoqarashida, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Agar shu fikrdan kelib chiqiladigan bo'lsak, qandaydir qonunlarni qabul qilish yo'li bilan uning oldini olib bo'lmaydi. Boz ustiga u oqayotgan suv emaski, oldi bekitilsa, olov emaski, insofga chaqirilsa. Xullas, uning millat va xalqlarning ma'naviyati qashshoqlashuviga o'tkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olishning shunday mexanizmini topish kerakki, u globallashuvning ijobiy ta'siridan foydalanishga va salbiy ta'sirga to'siq bo'lishga xizmat qilsin"[1: 73-74],-deb yozadi Sadulla Otamuratov.

Haqiqatdan ham millat va xalqlarning dunyoqarashiga, ularning turmush tarziga, jumladan yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xurujlar kuchayib borayotgan globallashuv davrda "tarbiya" masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda umuminsoniy yoki milliy tarbiya tamoyillariga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat" unsurlarining urchib borayotganligi va insonga xos bo'lgan tarbiya tamoyillariga salbiy ta'sir etayotganligiga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishni taqoza etmoqda. Mazkur sohadagi ishlarni qancha tezkor, reja asosida aniq maqsadlarga mos tarzda strategiyasini ishlab chiqish hamda uning huquqiy asosini mustahkamlash, kelgusida axborot xurujlari, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar hamda "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlaridan yoshlarni himoya qilishning eng muhim omili ta'lim tizimini, ayniqsa maktab ta'limining alohida o'rni bor.

Haqiqatdan ham maktab ta'limining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini chuqur anglab yetgan mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarini qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur"[2] ekanligini alohida ta'kidlab o'tib, sohani rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari ham belgilab berilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgustdagi videoselektorida **umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi** ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona "Tarbiya" fanini joriy etilganligi ana shunday muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Bugungi globallashuv jarayoni kechayotgan davrda yoshlarni "ommaviy madaniyat" singari turli tahdidlarning salbiy ta'sirlaridan himoyalashning institutsional tizimini yaratish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda tomonidan yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy sog'lom, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, bir so'z bilan aytganda barkamol shax sifatida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari huquqiy asoslari belgilab berildi.

Xo'sh, nega bugun tarbiyani fan sifatida o'qitishga ehtiyoj tug'ildi? Chunki, "Tarbiya" fanini o'qitish orqali: "...yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi"[3].

Bizningcha, yuqoridagi "...nega bugun tarbiyani fan sifatida o'qitishga ehtiyoj tug'ildi?,-degan savolga, aniq va lo'nda qilib, tarbiya jarayonini ilmiy jihatdan yondashuv asosida tashkil etishdan iborat deb javob bersak to'g'ri bo'ladi.

Aynan, "Tarbiya" fanini joriy qilinishi yoshlarda mafkuraviy immunitet va tahdidbardoshlik qobiliyatlarini shakllantirishning eng muhim omili vazifasini bajaruvchi vosita hisoblanadi. Buning uchun mazkur fanning predmetini, uning maqsad vazifalarini, bir so'z bilan aytganda, fanning mazmunini muntazam takomillashtirish, boyitib borish zarur.

Darhaiqat, "Tarbiya" fanini o'qitish orqali nafaqat yoshlarimizni har tomonlama yetuk shaxs sifatida ularda yuksak axloqiy fazilatlarini, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy olaamini boyitish orqali intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali ularning ota-onalarida ham siyosiy jarayonlarga, islohotlarimizning mohiyatini tunishish va jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirishdek oliy maqsadlarni mujassam etadi. Xolbuki, bunday ideallarga erishishning o'ziga xos tamoyillari mavjud. Bu quyidagilar:

birinchidan, o'quvchi yoshlarga tarbiyaviy tamoyillarni yoxuda tarbiyaning jozibadorligini ta'minlashda "Tarbiya" fani o'qituvchilarini trenirlik faoliyatga yo'naltirish va ularda zaruriy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratish;

ikkinchidan, "Tarbiya" fani o'qitish jarayonida milliy ta'lim tizimi yutuqlari bilan ta'lim sohasida ilg'or tajribalarga ega xorijiy mamlakalar tajribalari integratsiyasini ta'minlash, o'qituvchi-pedagoglarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish va stajrovkadan o'tash uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda moddiy-ma'naviy qo'llab- quvvatlash;

uchinchidan, o'quvchi-yoshlarni interfaol usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etilayotgan dars jarayonlariga moslashuvchalik qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish kabi tamoyillar asosida amalga oshirish, o'zining samaradorligi va omilkorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



Yuqoridagi fikr va mulohazalarimizga tayanib xulosa qilish mumkinki, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida "Tarbiya" fanini oʻqitish, birinchidan, oʻquvchilar shaxs sifatida shakillanib, ijtimoiy hayotdagi muammolarga nisbatan oʻz nuqtai nazarlarini, qarashlarini yuksak axloqiy fazilatlarga tayangan xolda bildirish, ikkinchidan, ijtimoiy hayotda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida muhim qarorlar qabul qilish hamda uni baholash, uchinchidan, yuksak intellektual salohiyatni yuksaltirish asosida oʻquvchi yoshlarda yangicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy tafakkurni shakillantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT ROʻYXATI:

1. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Т.: Ўзбекистон, 2013. – 74-74 б.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari haqida"gi 422-sonli qarori, 2020-yil 6-iyun.